

SYUJETLI-ROLLI O'YINLAR ORQALI MAKTABGACHA O'RTA YOSH GURUHI BOLALARINING AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Tursoatova Go'zal Toshtemirovna

Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti, maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti

Bog'cha yoshidagi bolalarga nazar tashlar ekanmiz, ularning nihoyatda har xilligini payqaymiz. Bir xil bolalarlar haddan tashqari serharakat, ularning his-tuyg'ulari juda jo'shqin, qiziqish doiralari g'oyat keng bo'lsa, ayrim bolalar kamharakat, vazmin, kamgap, his-tuyg'ulari osoyishta, ko'p narsalar bilan ishlari bo'lmaydigan beparvo bo'ladilar.

Odamning umumiy harakatchanligi va his-tuyg'ularining qanchalik kuchli hamda tez namoyon bo'lishida ko'rinadigan individual psixologik xususiyatlarining yig'indisiga temperament deb ataladi.

Temperament oliy nerv faoliyatining uch xil xususiyati bilan bog'liqdir. Ulardan birinchisi - nerv sistemasining kuchi, ikkinchisi- qo'zg'olish va tormozlanish protsesslarining muvozanatlashgan yoki muvozanatlashmaganligi (ya'ni birining ikkinchisidan ustunligi yoki zaifligi) va nihoyat, uchinchisi - qo'zg'olish va tormozlanish protsesslarining qanchalik tez hosil bo'lishi (harakatchanligi) bilan bog'liqdir.

Buyuk olimlarimizdan biri M.Davletshin ta'limotiga ko'ra, temperament turlarini quyidagicha xarakterlash mumkin.

Xolerik temperamentidagi odam kuchli, muvozanatlashmagan (tormozlanishga qaraganda qo'zg'olish ustunlik qiladi) va harakatchan bo'ladi.

Sangvinik temperamentidagi odam kuchli, muvozanatlashgan (ya'ni qo'g'olish va tormozlanish protsesslari bir-biriga mos bo'ladi) va harakatchan bo'ladi.

Flegmatik temperamentidagi odam kuchli, muvozanatlashgan, lekin nihoyatda sust bo'ladi.

Melanxolik temperamentidagi odam har jihatdan kuchsiz bo'ladi.

Shu narsani ta'kidlab o'tish kerakki, ana shu temperament turlari sof holda, ya'ni sof xolerik, sof flegmatik tarzda deyarli uchramaydi. Ko'pchilik odamlar aralashgan temperament turiga ega bo'ladilar. Odamda qaysi xildagi temperamentning xususiyatlari ortiqroq namoyon bo'lsa, shunga qarab u yoki bu temperament turiga bo'lamiz. Masalan, juda tinib-tinchimagan, serharakat, serg'ayrat, hamma narsalar bilan qiziqadigan bo'lsa xolerik temperamentdagi, juda beparvo, beg'am, kam harakat, sustkash bo'lsa flegmatik temperamentdagi odam deymiz.

Ana shu 4 xil temperament turining birini yaxshi, birini yomon deb bo'lmaydi. Har bir temperamentning o'z ijobiy va salbiy tomonlari bo'ladi. Masalan, xolerik temperamentidagi odamning salbiy tomonlari shundan iboratki, unda tormozlanish protsessi sust bo'ladi, ayrim nojo'ya yoki unga taalluqli bo'lmagan harakatlardan o'zini tiyib tura olmaydi. Flegmatik temperamentidagi odam juda sustkash, beparvo bo'ladi. Xolerik temperamentidagi odamning ijobiy hislatlari uning kuchliligida, serharakat, g'ayratli, qat'iyligida, zehning o'tkirligida namoyon bo'ladi. Flegmatik temperamentidagi odamning ijobiy fazilatlarini uning kuchliligida (albatta aqliy jihatdan kuchliligida), vazminligida namoyon bo'ladi.

Bolalarning temperament xususiyatlarini yoshlikdan boshlab tarbiyalab borish kerak. Buning uchun dastavval u yoki bu bolaning qaysi temperament turiga taalluqli ekanini aniqlash lozim. Bolalarning temperament xususiyatlari ularning har kungi xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Masalan, chaqaloq bolalarni oladigan bo'lsak, ayrim chaqaloq bolalar eplab bo'lmaydigay darajada yig'loq, hech narsaga ko'nmaydigan, har narsaga intilaveradigan, juda besaramjon bo'ladilar. Ana shunday chaqaloqlardan xolerik temperamenti xususiyatiga ega bo'lgan odam yuzaga keladi. Ba'zi bir chaqaloq bolalar esa juda tinch, kam yig'laydigan, qorni to'q, tagi quruq bo'lsa, o'ynab yotadigan beozor bo'ladi. Bunday chaqaloqlardan flegmatik yoki melanxolik temperamentining xususiyatlariga ega bo'lgan odamlar yetishib chiqadi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning temperamentlariga oid xususiyatlari ularning o'yin faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Xolerik temperamentidagi bolalar harakatli o'yinlarni yoqtirsalar, flegmatik temperamentidagi bolalar bir joyda o'tirib o'yinchoqlar bilan o'ynashni yoqtiradilar.

Bog'cha yoshidagi bolalarning qaysi bir temperament turiga kirishlarini aniqlash qiyin bo'lib qolsa, maxsus o'yinlar tashkil qilish orqali ularning temperament xususiyatlari aniqlanadi. Masalan, gruppada xonasining har ikki tomoniga bittadan stol qo'yib, stollardan birining ustiga 20 ta kichik kubik va bitta kurakcha qo'yib, bolalarga kurakchani ustiga ana shu kubiklarni taxlab (ustma-ust qilib) bir stoldan ikkinchi stolga ko'chirish o'yini o'tkazishni tashkil etish mumkin. Ana shu o'yinni o'tkazishda har bir bolaning temperament xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Chunonchi, xolerik temperamentiga mansub bola bu ishni hammadan oldin bajraman deb, shoshib kurakchada taxlangan kubiklarni to'kib

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

yuboradi, darhol yana taxlab, yana yuguradi, yana to'kib yuboradi, ana shu tariqa urinib yota beradi. Melanxolik temperamentiga mansub bola esa, birinchi muvaffaqiyatsizlikka uchrashi bilan «Men buni qila olmayman», deb gruppaga xonasidan chiqib ketadi. Flegmatik temperamentiga mansub bola esa, bu ishni hech bir shoshmasdan, xovliqmay, sekin-asta bajara boshlaydi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning temperament xususiyatlari aniqlangandan so'ng ularga nisbatan individual munosabatda bo'lib, ayrim salbiy tomonlarini yo'qotishga va ijobiy tomonlarini mustahkamlashga harakat qilish lozim. Chunki temperament xususiyatlari bolalarda xarakter hislatlarining tarkib topishida juda katta ahamiyatga egadir.

Shunday qilib, temperament odamlarning ko'zga yaqqol tashlanib turadigan individual psixologik xususiyatidir. Har bir odamning, shu jumladan, har bir bolaning har qanday temperament tipiga mansub ekanligini aniqlash juda katta ahamiyatga egadir. Odamning qanday temperament tipiga mansub ekanligini bilib, aniqlab munosabatda bo'lish ta'lim-tarbiya protsessini, ilmiy ravishda tashkil qilishni va to'g'ri individual munosabatda bo'lishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. Бердиева, Ханифа Мейлиевна Изучение научных основ механизации и автоматизации управления сельским хозяйством в курсе физики средней школы (на материале сельских школ Узбекистана). <https://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-02/dissertatsiya-izuchenie-nauchnyh-osnov-mehanizatsii-i-avtomatizatsii-upravleniya-selskim-hozyaystvom-v-kurse-fiziki-sredney-shkoly-na-m>

2. Бердиева Х.М., Шаманов М.Х., Абдурахмонова Р.Х., Гулбоева Б.Н. Технология и методика обучения учащихся общеобразовательных школ // Студенческий вестник: электрон. научн. журн. 2018. № 29(49). URL: <https://internauka.org/journal/stud/herald/49> (дата обращения: 10.03.2022).

3. Бердиева Х.М. Развитие профессиональных коммуникативных навыков педагогов в сфере образования. <https://s.siteapi.org/d955411c180ee78/docs/khhp4bee6u8g8goowcsg0gcg8os0kw>

4. Berdiyeva Muhabbat Meyliyevna Pedagogical support and development of the intellectual opportunities of children in preschool education <http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2019/12/abstract-pedagogical-support-and-development-of-the-intellectual-opportunities-of-children.pdf>

5. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat. The quality of preschool education at the present stage. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year : 2021, Volume : 11, Issue : 10. [10.5958/2249-7137.2021.02402.2](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001)
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001>

6. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat Tasks for preschool educators. [10.5958/2249-877X.2021.00078.3.](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023)
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023>

7. Berdiyeva M.M. Formation of intellectual culture of a preschooler. <https://scientific-conference.com/images/PDF/2019/55/International-scientific-review-LIV-ISBN.pdf>

8. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Мактаб ўқувчиларини касб-хунарга ўргатиш йўллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20E2%84%9626%20282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>

9. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Таълим тизимини модернизациялашдаги муаммолар ва уларни бартараф этиш усуллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20E2%84%9626%20282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>

10. Бердиева Мухабат Мейлиевна. Педагогик қўллаб-қувватлаш асосида илк ёшдаги болаларни интеллектуал ривожлантириш. “Профессионал таълим тизимида ислохотлар: малака ошириш таълим турида инновацион ғоялар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. <https://staff.tiame.uz/storage/users/546/articles/iMJfaUDoPQYZqSxUhG7olj9aZ9XSLff9CSErkMxL.pdf>

11. Usmanova Saodat Erkinovna. (2021). Formation of spiritual and moral qualities of preschoolers on the basis of public education. Middle European Scientific Bulletin, 11. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.421>

12. Усманова Саодат Эркиновна Возможности Использования Мультимедийных Компьютерных Программ В Развитии Детей Дошкольного Возраста. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=46438589>

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

13. Jumayeva malika aliyevna, & buriyev jamshid jumanazarovich. (2021). The role of activity in the upbringing and development of the child . International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 1(2), 126–129. Retrieved from <https://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/40>

14. Jumayeva Malika Aliyevna. (2021). Independent musical activity in preschool organizations. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(1), 9–10. Retrieved from <https://openaccessjournals.eu/index.php/jedic/article/view/16>

15. Aliyevna, J. M. (2021). The Social Activity of the Educator with the Family. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 12, 401-403. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/338>

16. Lola Utasheva Shoturaevna. (2021). Social and pedagogical activities in preschool educational institutions. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(11), 412–415. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/193>

17. Shoturayevna, U. L. (2021). Development of Creative Competence of Educators in Preschool Educational Institutions. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 12, 395-397. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/336>

18. Radjabova G.M. The educational value of oral folk art for preschoolers // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

19. Berdieva M.M. Increasing the research activity of a pupil of a preschool organization // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

20. Berdieva Kh.M. Functions of the organization of advanced training of teachers in the field of education // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

21. Utasheva L.Sh. Introducing preschoolers to the world of fiction // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С. {см. сборник}.

22. Usmonova S.E. Plot construction as a means of developing the creative abilities of children // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

23. Muhammadiyeva F.T. Technology familiarization of preschoolers with various materials through cognitive research activities // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С

24. Matatmuminova M.G. Features of the use of animation in the development of creative abilities of preschoolers // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.